

HOZIRGI O`ZBEK ADABIY TILIDA UNLILAR TASNIFI.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gumanitar fanlar fakulteti

O`zbek tili va adabiyoti yo`nalishi 1-bosqich talabasi

Davlatboyeva Ro`za Tozaboy qizi

[*rozadavlatboyeva1@gmail.com*](mailto:rozadavlatboyeva1@gmail.com)

Ilmiy rahbar: Muxtarova Shahnoza.

Annotatsiya: Ushbu maqolada vokalizmlar haqida ma`lumot beriladi. Unli tovushlar tizimi va ularning fonetik-fonologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Unli fonemalarning artikulyatsion va akustik xususiyatlari tahlil qilinadi. O`zbek tilida 6ta unli fonema mavjudligi, ularning keng-torligi, tilning goriznotal va vertikal holati, lablanish kabi belgilar asosida tasniflanishi ko`rsatiladi.

**Kalit so`zlar:** Vokalizm haqida ma`lumot, lab ishtirokiga ko`ra, og`izning ochilish darajasiga ko`ra, tilning vertikal va gorizontal harakatiga ko`ra, unli fonemalarning paradigmatic va sintagmatic tavsiflari.

Og`iz va bo`g`iz bo`shlig`ida hech qanday to`siqqa uchramay hosil bo`ladigan, tarkibi ovozdan iborat (shovqin deyarli ishtirok etmaydigan) tovushlar. Tildagi unlilar tizimi vokalizm (lotincha: vocalis – unli tovush) deyiladi. Unli tovushlar faqat ovozdan iborat.<sup>1</sup> O`zbek tilida 6ta unli bor. Unlilarning tasnifi 3ta bular: Lab ishtirokiga ko`ra, vertikal va gorizontal turlarga bo`linadi. 1. Lablarning ishtirokiga ko`ra: lablangan unlilar - u, o`, o. Bu unlilarning talaffuzida lablar doira shakliga kirib, oldinga cho`ziladi; lablanmagan unlilar - i, e, a. Bu unlilarning talaffuzida lablar doira shakliga kirmaydi va cho`zilmaydi. Demak, bu belgilar asosida hozirgi o`zbek adabiy tili unlilari i-u (lablanmagan - lablangan), e-o` (lablanmagan - lablangan), a-o (lablanmagan-lablangan) oppozitsiyalarini hosil qiladi va qator minimal juftliklarda (kvaziomonimlarda) fonologik ahamiyatga ega bo`ladi: bir-bur, ber-bo`r, bar-bor, in-un, ana-ona kabi.

Tilning vertikal harakatiga ko`ra: tor unlilar - i, u. Bu unlilarning talaffuzida og`iz tor ochiladi, til bilan qattiq tanglay orasi ham tor bo`ladi; o`rta keng unlilar - e, o. Bu unlilarning talaffuzida og`iz o`rta darajada ochiladi, til bilan qattiq tanglay orasi ham o`rtacha kenglikda (yuqori ko`tarilish bilan quyi ko`tarilish orasida) bo`ladi; keng unlilar - a, o. Bu unlilarning talaffuzida og`iz yuqoridagi har ikki holatdan kengroq ochiladi. Tasnifning bu belgisiga ko`ra lablanmagan unlilar i-e (yuqori tor va o`rta keng), e-a (o`rta keng va quyi keng), i-a (yuqori tor va quyi keng) oppozitsiyalarini,

¹ Q.Mo`ydinov.R.Ikramov.Tilshunoslik asoslari. – Toshkent, 2024, 40-bet.

lablangan unlilar esa u – o` (yuqori tor va o`rta keng), o` - o (o`rta keng va quyi keng), u-o (yuqori tor va quyi keng) oppozitsiyalarini hosil qiladi va qator minimal juftliklarda fonologik vazifa bajaradi: bir-ber, ber-bar, bir-bar; bur-bo`r, bo`r-bor, bur-bor kabi.

Tilning gorizontaal harakatiga ko`ra: old qator unlilar - i,e,a. Bu unlilarning talaffuzida tilning ichki qismi oldinga tomon cho`zilib, pastki tishlarga tiraladi; orqa qator unlilar - u,o`,o. Bu unlilarning talaffuzida tilning ichki qismi biroz orqaga tortiladi (demak, u pastki tishlarga tirilmaydi).

Yuqorida tasniflarda keltirilgan uch belgidan ikkitasi (lablangan va lablanmagan hamda tilning vertikal harakatiga asoslangan belgilar) fonemalarning fonologik xususiyatini ifodalaydi (ular tegishli kvaziomonimlar misolida yuqorida izohlandi), uchinchi belgi (tilning gorizontaal harakati) esa, prof. A. Abduazizov va prof. A. Nurmonovning ta'kidlashicha, fonologik jihatdan ahamiyatsiz bo`lib, fonemaning asosiy belgilari qatoriga kirmaydi, chunki unlilarning old qator va orqa qator bo`lishi lablarning ishtirokiga va turli kombinator-pozitsion omillarga bog`liqdir: lablanmaslik tilning tishlar tomon siljishini, lablanish esa tilning tishdan orqaga tortilishini taqozo qiladi. Demak, old qator (i,e,a) va orqa qator (u,o`,o) unlilarining fonologik xususiyatlari lablar ishtirokisiz namoyon bo`lmaydi. Bu fikrga prof. Sh.U. Rahmatullayev e'tiroz bildirib, shunday deydi: "Ayrim adabiyotlardagi bir fikrga - ovoz tovushlarni tavsiflashda tilning yotiq yo`nalishidagi harakati belgisi ahamiyatsiz degan fikrga qat'iy e'tiroz bildirish lozim. Ovoz tovushlarda (fonema nomi bilan atagan holda) bu belgi asosida zidlanish (oppozitsiya) hosil etish yo`q deyish haqiqatga to`g`ri kelmaydi". Bu fikrni prof. Sh. Rahmatullayev quyidagicha asoslashga harakat qiladi: "...Lablarning qatnashishi darajasiga va tilning yotiq yo`nalishdagi harakatiga ko`ra ovoz tovushlar ketma-ket bir xil o`rin oladi, chunki bu ikki nuqtayi nazarning negizi bir-biri bilan bog`liq: til oldga tomon harakatlansa, lablar cho`chchaymaydi, orqaga tomon harakatlansa, lablar cho`chchayadi, masalan, i, u tovushlarida bo`lgani kabi. Ko`rinadiki, yetakchi, hal qiluvchi deb tilning yotiq yo`nalishdagi harakatini ko`rsatish to`g`ri". Prof. Sh.U. Rahmatullayevning fikriga, o`z navbatida, prof. A. Abduazizov qo`shilmaydi. Uningcha, "lablanish tilning orqa tomon tortilishi natijasida hosil bo`ladi,- deyish to`g`ri emas, chunki ko`pgina tillarda tilning orqaga tortilishi yordamida hosil bo`luvchi til orqa unlilaridan ba`zilar lablanmagandir". ²

Unli fonemalarning paradigmatic tavsifi fonemalarning vokalizm sistemasi ichidagi strukturasidan (aloqa-munosabatlaridan) kelib chiqadi. Bunday tavsif ko`pincha unli fonemaning bir xil fonetik qurshovdagi funksional jihatlarini qiyoslashga asoslanadi. Unli fonemalarning sintagmatic tavsifi fonemalarning nutq oqimidagi o`rni, bo`g`in, so`z yoki morfema tarkibidagi taqsimoti, kuchli va kuchsiz

² Rahmatullayev Shavkat. Hozirgi adabiy o`zbek tili. –T.:Universitet, 2006,15-b.

pozitsiyalardagi holatlari (variantlanishi) bilan bogʻliq tavsifidir. Vokalizm sistemasidagi har bir fonema tavsifi ana shu ikki jihatdan kelib chiqib belgilanadi.

"I" fonemasi - old qator, tor, lablanmagan unli. Bu fonema soʻzning barcha boʻgʻinlarida uchraydi: ikki (birinchi va oxirgi boʻgʻinlarda), bilimli (birinchi, ikkinchi va oxirgi boʻgʻinlarda) kabi. U chuqur til orqa q, gʻ, x undoshlari bilan yonma-yon kelganda yoʻgʻon (orqa qator) unli tarzida, boshqa barcha pozitsiyalarda ingichka (old qator) unli koʻrinishida talaffuz qilinadi.

"E" fonemasi – oʻrta keng, old qator, lablanmagan unli. Bu fonema bir boʻgʻinli soʻzlarning boshida va oʻrtasida (en, es, men, sen, besh kabi), koʻp boʻgʻinli soʻzlarning birinchi boʻgʻinida (etik, teshik, beshik kabi) koʻproq qoʻllanadi. Turkiy soʻzlarda birinchi boʻgʻindan keyingi boʻgʻinlarda ishlatilmaydi (bor-e, yogʻ-e kabi holatlarda soʻzga qoʻshilgan "e" yuklamasi bundan mustasno).

"A" fonemasi - keng (quyi keng), old qator, lablanmagan unli. Soʻzning barcha boʻgʻinlarida kela oladi: anor (birinchi boʻgʻinda), telpak (oxirgi boʻgʻinda), nafaqa (barcha boʻgʻinlarda) kabi. Bu fonema ham, boshqa unlilarda boʻlganidek, chuqur til orqa q, gʻ, x undoshlari bilan yondosh qoʻllanganda orqa qator (yoʻgʻon) unli tarzida talaffuz qilinadi, sayoz til orqa k, g, ng, til oʻrta y va faringal h undoshlari bilan yonma-yon qoʻllanganda til oldi (ingichka) unli sifatida aytiladi.

"U" fonemasi - tor (yuqori koʻtarilish), orqa qator, lablangan unli. Soʻzning barcha boʻgʻinlarida qoʻllanadi: uka (birinchi boʻgʻinda), uzum (birinchi, ikkinchi boʻgʻinlarda), ko,,zgu (oxirgi ochiq boʻgʻinda) kabi. Urgʻuli boʻgʻinda kuchli, biroz choʻziq; urgʻusiz boʻgʻinda esa qisqa, kuchsiz talaffuz qilinadi.

"O" fonemasi – oʻrta keng, orqa qator, lablangan unli. Sodda soʻzning birinchi boʻgʻinida qoʻllanadi: oʻn, boʻr „(bir boʻgʻinli soʻzlarda), oʻtin, (ikki boʻgʻinli soʻzlarda) kabi. Birinchi boʻgʻindan keyin kelishi ayrim qoʻshma soʻzlarda (urtoʻqmoq, ochkoʻz, qirqboʻgʻin) yoki tojikcha oʻzlashmalarda (obroʻ, xudogoʻy, xudojoʻ soʻzlarida) uchraydi. Bu unli ham k, g, h, y undoshlari yonida ingichkalashadi (old qator ottenka bilan aytiladi).

"O" fonemasi - quyi keng, orqa qator, kuchsiz lablangan unli. Bu fonema ham soʻzning barcha boʻgʻinlarida uchraydi: ota, bola, buloq, bobo, qirmoch (oʻzb.), baho, anor, bodom (f-t.), bahodir (mo_g_), qiroat, matbuot (ar.) kabi. Bu fonema ham k, g, h, y undoshlari yonida ingichka (old qator unli tarzida), q, gʻ, x undoshlari yonida esa yoʻgʻon (orqa qator unli tarzida) talaffuz qilinadi. Qiyos qiling: komil va qobil, gov va gʻov.

Xulosa

Ushbu maqolada hozirgi oʻzbek adabiy tilidagi unli tovushlar tizimi fonetik va fonologik jihatdan boy va murakkab tuzilishga ega. Unlilar turli tasnif mezonlari asosida – tilning orqa yoki old qatlamda ishtirok etishi, lablarning holati, til boʻgʻimining joylashuvi va boʻgʻim kuchi kabi belgilarga koʻra guruhlariga ajratiladi.

Ushbu unlilar nafaqat soʻzlarning fonetik shakllanishida, balki ularning morfologik tuzilishi va grammatik shakllanishida ham muhim rol oʻynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Rahmatullayev. Hozirgi adabiy oʻzbek tili. –T.:Universitet, 2006,15-bet.
- 2.Qodirjon Moʻydinov,R.Ikramov. Tilshunoslik asoslari. – Toshkent, 2006, 40-bet.
- 3.Hasanboy Jamalxonov,Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – Toshkent, 2023, 79-bet.

